

01-10/4-son
31.07.2025-y.

TASDIQLAYMAN
Adliya vazirligi huzuridagi
“O‘zarxiv” agentligi
direktori, Hay’at raisi



U.M. Yusupov
2025-yil 31-iyul

“O‘zarxiv” agentligi hay’atining kengaytirilgan yig‘ilishi
4-son BAYONI

2025-yil 31-iyul

Toshkent sh.

Raislik qiluvchi: U.Yusupov – Agentlik direktori

Hay’ati a’zolari: Sh.Sadikov, Sh.Yaminov, Sh.Xojiboyev,
S.Aminov, A.Mamanazarov, D.Zakirova

Taklif qilinganlar: G.Boboyeva – O‘zbekiston Milliy axborot
agentligi muxbiri;
D.Madiyeva – “O‘zbekiston 24” radiokanali
jurnalisti;
S.Haqnazarov – “Mahalla” radiokanali jurnalisti

Qatnashdilar: Agentlik markaziy apparati xodimlari va uning
tizimidagi tashkilotlar rahbarlari

KUN TARTIBI:

I. “O‘zarxiv” agentligi faoliyatining 2025-yil 1-yarim yillik yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risida (U.Yusupov).

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 19.06.2025-yildagi PF-95-son va “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 25.07.2025-yildagi PF-117-son Farmonlari muhokamasi;

– **pullik tushumlar bo‘yicha** Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo, Toshkent viloyatlari;

– **ichki audit tekshiruvlari bo'yicha** Buxoro, Navoiy viloyatlari;
 – **hujjatlarni qabuli bo'yicha** Andijon, Surxondaryo, Toshkent viloyatlari
 arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlarining axboroti.

II. “O‘zarxiv” agentligining 2025-yil II yarim yilligiga mo‘ljallangan Asosiy ish rejasi loyihasi muhokamasi to‘g‘risida (**U.Yusupov**).

III. “O‘zarxiv” agentligi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan 2025-yil I yarim yillikda o‘tkazilgan arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan o‘tkazilgan davlat nazorati tadbirlari to‘g‘risida (**Sh.Xojiboyev**).

– **ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomalar bo'yicha** Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Sirdaryo, Surxondaryo, Farg‘ona, Xorazm viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlarining axboroti.

IV. “O‘zarxiv” agentligi tizimida ijro intizomi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda so‘rovlar ijrosi holati to‘g‘risida (**Sh.Sadikov, L.Mirzayev, D.Yusupov**).

V. Davlat arxivlari tomonidan “Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta‘minlash hamda ulardan foydalanish” axborot tizimiga ma‘lumotlarni kiritish holati to‘g‘risida (**Sh.Yaminov, A.Ziyatdinov**).

VI. Turli masalalar.

I. “O‘zarxiv” agentligi faoliyatining 2025-yil 1-yarim yillik yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risida

(U.Yusupov, Sh.Sadikov, Sh.Yaminov, Sh.Xojiboyev, S.Aminov, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)

“O‘zarxiv” agentligi faoliyatining 2025-yil 1-yarim yillik yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risidagi axboroti eshitildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** 2025-yil 19-iyundagi PF-95-son Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon bilan quyidagilar tasdiqlandi:

Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi, Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari, Davlat fuqarolik xizmatini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturi,

Davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlari ro‘yxati, Respublika, hududiy va tuman (shahar) darajasidagi davlat organlari davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri, Milliy darajadagi davlat organlari davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri;

Davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash uchun tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi, Milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi, Davlat fuqarolik xizmatchilariga malaka darajalarini berish tartibi

to'g'risidagi nizom, Davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz ravishda oshirish tartibi to'g'risidagi nizomlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”** 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-son Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon bilan:

Hisob palatasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish, va topshiriqlari ijrosini nazorat qilishdagi roli oshirilgan;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari farmoyishlari va topshiriqlari ijrosini “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali nazorat qilish amaliyoti yo'lga qo'yilgan;

Vazirlar Mahkamasi qarorlari ijrosini nazorat qilishning yangi mexanizmlari joriy qilingan;

Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini to'liq tashkil etish va ijro sifatini baholashning yangi tartibi joriy etilgan;

Hisob palatasi, Vazirlar Mahkamasi va Adliya vazirligi tomonidan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijro holatini baholash amaliyoti joriy etilgan;

“Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijrosini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomi yangi tahrirda bayon qilingan.

O'zbekiston Respublikasida arxiv ishini rivojlantirishning ko'rsatkichlarini bajarilishi bo'yicha:

MAF hujjatlarini saqlovini ta'minlash

126 086 varaq (*rejaga nisbatan 120 % bajarildi*) arxiv hujjatlari **ta'mirlandi** va **47 966 saqlov birligidagi** (*keyingi o'rinlarda – s.b.*) (**136 %**) arxiv hujjatlari **muqovalandi va tikildi** hamda **6 000 s.b.** (**100 %**) surat hujjatlariga **konservatsion ishlov berildi**, shuningdek, **17 008 s.b.** (**130 %**) arxiv hujjatlari **kartonlashtirildi**.

5 807 s.b.dan (**142 %**) **30 299 ta** (**201 %**) qog'oz asosdagi, **59 s.b.** kino (**118%**), **1 647 h.b.** (**122%**) surat, **27 s.b.** (**108 %**) ovozli **alohida qimmatli hujjatlar aniqlandi**.

Davlat arxivlari tomonidan **378 462 s.b.** (**124 %**), **shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari** tomonidan **172 036 s.b.** (**118%**) arxiv hujjatlarining mavjudligi va holati tekshirildi.

Davlat arxivlari tomonidan **14 978 s.b.** boshqaruv (**115%**), **12 s.b.** (**120%**) shaxsiy kelib chiqish hujjatlarining ro'yxatlari **xatlovi takomillashtirildi**.

MAF hujjatlarini qabul qilish

Vazirlik, idoralar, ularning hududiy bo'linmalari va boshqa tashkilotlar hamda fuqarolarning **130 169 s.b.** (**169%**) boshqaruv, **207 s.b.** shaxsiy kelib chiqish, **12 692 s.b.** shaxsiy tarkib, **225 s.b.** (**1725%**) ilmiy-texnik, **27 s.b.** (**108%**) kino, **2568 s.b.** (**138%**) surat, **60 s.b.** (**100%**) ovozli, **10 903 s.b.** (**6944%**) saqlash muddati vaqtincha bo'lgan hujjatlar **davlat arxivlari** saqloviga, **1 233 s.b.**

(171%) boshqaruv, **29 102 s.b.** (180%) shaxsiy tarkib, **32 463 s.b.** (1038%) saqlash muddati vaqtincha bo'lgan hujjatlar **shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari saqloviga qabul qilindi.**

MAF hujjatlarini jamlash va qimmatdorligini ekspertiza qilish, hujjatlarni idoraviy saqlovini tashkil qilish

Davlat arxivlari tomonidan **156 364 s.b.** (199%) boshqaruv, **917 s.b.** (195%) ilmiy-texnik, **21 357 s.b.** (234%) shaxsiy tarkib, **80 144 s.b.** saqlash muddati vaqtincha bo'lgan hujjatlar, **shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari** tomonidan **11 382 s.b.** (1091%) boshqaruv, **26 773 s.b.** (169%) shaxsiy tarkib, **62 993 s.b.** saqlash muddati vaqtincha bo'lgan hujjatlar tashkilot va korxonalarning buyurtmalariga muvofiq **shartnoma asosida tartibga keltirildi.**

Davlat arxivlarida saqlanayotgan **63 968 s.b.** (126%) boshqaruv, **83 s.b.** (207%) shaxsiy kelib chiqish, **177 s.b.** (136%) shaxsiy tarkib hujjatlarining **qimmatligini aniqlash ekspertizasi o'tkazildi.**

Ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlar

Davlat arxivlari tomonidan vazirlik va idoralar hamda boshqa tashkilotlar uchun **580 ta** sohaga oid ichki normativ hujjatlar, shu jumladan, **256 ta** yig'majildlar nomenklaturasi, **87 ta** ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha yo'riqnomasi, **111 ta** arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ekspert komissiyalari to'g'risidagi va **126 ta** idoraviy arxiv to'g'risidagi nizomlari **ishlab chiqildi.**

“O‘zarxiv” agentligida (METK), arxiv ishi hududiy boshqarmalarida (ETK), O‘zbekiston milliy arxivlarida (ETUK) tashkilotlar hujjatlari ro‘yxatlarini, sohaga oid ichki normativ hujjatlarni tasdiqlash (kelishish)

Hisobot davrida Arxiv ishi hududiy boshqarmalari va O'zbekiston milliy arxivlari tomonidan tashkilotlarning **1 610 ta** (126%), shundan, **683 ta** boshqaruv, **7 ta** shaxsiy kelib chiqish, **681 ta** shaxsiy tarkib, **6 ta** ilmiy-texnik, **43 ta** alohida qimmatli va noyob, **4 ta** surat, **98 ta** saqlash muddati vaqtincha bo'lgan hujjatlar yig'majildlarining arxiv ro'yxatlari va **88 ta** hujjatlarni yo'q qilishga ajratish to'g'risidagi dalolatnomalari **tasdiqlandi (kelishildi).**

Shuningdek, tashkilotlarning **1 156 ta** (136%) sohaga oid ichki normativ hujjatlari, shu jumladan, **599 ta** yig'majildlar nomenklaturasi, **119 ta** ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha yo'riqnomasi, **217 ta** arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ekspert komissiyalari to'g'risidagi va **221 ta** idoraviy arxiv to'g'risidagi nizomlari **kelishildi.**

Pullik xizmat ko'rsatish

Hisobot davrida arxivlarning umumiy pullik xizmatlar hajmi **28,647 mlrd. so'mni** (o'tgan yilning shu davriga nisbatan **111 foizga oshgan**) tashkil etdi. Xususan,

Davlat arxivlari tomonidan **18,384 mlrd. so'm** (o'tgan yilning shu davriga nisbatan **112 foizga oshgan**), jumladan, **5,154 mlrd. so'm** mavzuli so'rovlardan, **9,527 mlrd. so'm** hujjatlarni tartibga keltirishdan, **178,3 mln. so'm** arxiv sohasiga oid ichki normativ hujjatlarni tayyorlashdan, **1,918 mlrd. so'm** hujjatlarni depozitar saqlashdan, **135 mln. so'm** yaroqsiz holatga kelgan yoki

yo'qotilgan mehnat daftarchasidagi yozuvlarni tasdiqlashdan, **1,470 mlrd. so'm** boshqa xizmatlardan;

Shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlari tomonidan **10,263 mlrd. so'm** (*o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109 foizga oshgan*), jumladan, **623,3 mln. so'm** mavzuli so'rovlardan, **3,680 mlrd. so'm** hujjatlarni tartibga keltirishdan, **14,1 mln. so'm** arxiv sohasiga oid ichki normativ hujjatlarni tayyorlashdan, **4,807 mlrd. so'm** hujjatlarni depozitar saqlashdan, **585,2 mln. so'm** yaroqsiz holatga kelgan yoki yo'qotilgan mehnat daftarchasidagi yozuvlarni tasdiqlashdan va **881,7 mln. so'm** boshqa pullik xizmatlardan **daromad olingan**.

Shu bilan birga, ayrim arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan ayrim **ko'rsatkichlarni bajarilishida** sustkashlikka yo'l qo'yilmoqda.

Xususan, **doimiy hujjatlarni qabul qilish** bo'yicha **Andijon** (61 foiz), **Surxondaryo** (10 foiz), **Toshkent** (45 foiz) viloyatlari tomonidan o'tgan yilning shu davriga nisbatan **o'sish suratlari**ga erishilmagan.

Pullik xizmatdan tushgan daromadi bo'yicha **Jizzax** (94 foiz), **Qashqadaryo** (86 foiz), **Namangan** (89 foiz), **Surxondaryo** (82 foiz), **Toshkent** (92 foiz) viloyatlari tomonidan o'tgan yilning shu davriga nisbatan **o'sish suratlari**ga erishilmagan.

Bundan tashqari, "O'zarxiv" agentligida ichki audit xizmati yo'lga qo'yilgan bo'lib, joriy yilda **19 ta** ichki audit tekshiruvlari o'tkazildi. O'tkazilgan audit tadbirlari natijasida **16 ta** tashkilotda **106 ta** holatda jami **101,447 mln.so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklar** aniqlandi. Shundan, **54,559 mln.so'mi** tegishli budjetga tiklab berilgan bo'lib, qolgan qismi tiklab berilishi jarayonida.

Jumladan, **Andijon** viloyatining **3 ta** – arxiv ishi hududiy boshqarmasi, viloyat va Asaka tumani davlat arxivlarida **16,9 mln. so'm**, **Buxoro** viloyatining **6 ta** – viloyat, Jondor, Vobkent, Kogon, Shofirkon, G'ijduvon tumanlari davlat arxivlarida **27,7 mln. so'm**, **Navoiy** viloyatining **3 ta** – arxiv ishi hududiy boshqarmasi, viloyat va Karmana tumani davlat arxivlarida **13,6 mln.so'm**, **Qashqadaryo** viloyatining **3 ta** – viloyat, Qarshi va G'uzor tumanlari davlat arxivlarida **35,6 mln.so'm** va O'zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivida **7,6 mln.so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlangan** bo'lsada, bugungi kunga qadar **Buxoro viloyati** bo'yicha **5,8 mln.so'm**, **Navoiy viloyati** bo'yicha **5,5 mln.so'm** mablag'lar tiklanmagan.

Qolaversa, ayrim davlat arxivlari tomonidan tashkilotlar hujjatlarining qimmatligini aniqlash ekspertizasini o'tkazishda qonunchilik hujjatlariga rioya etmasdan kelmoqdalar.

Masalan, "O'zpaxtasanoat" aksiyadorlik jamiyati bugungi kunda **tugatilmaganligiga qaramasdan, uning mulk huquqidagi** O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan saqlash muddati vaqtincha bo'lgan **6 028 ta** yig'majildlar bo'yicha ushbu arxiv tomonidan yo'q qilishga ajratish to'g'risida **4 ta** dalolatnoma tuzib ekspert-tekshiruv uslubiy komissiyasida tasdiqlangan (*arxiv direktori tomonidan tasdiqlanmagan*).

Davlat arxivlarining jamlash manbalari hisoblangan yoki hisoblanmagan tashkilotlarda tuzilgan hujjatlarni yo‘q qilishga ajratish to‘g‘risidagi dalolatnomalar **tashkilotning EK (MEK) qarori bilan ma’qullangandan so‘ng tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanishi** belgilanganligiga qaramasdan, joriy yilda **84 tadan ortiq** tashkilotlarning saqlanishi lozim bo‘lmagan hujjatlarni yo‘q qilishga ajratish to‘g‘risidagi dalolatnomalarini Buxoro viloyati ekspert-tekshiruv komissiyasining **6 ta** bayonnomasida ko‘rib chiqilgan (*tasdiqlangan, kelishilgan, ma’qullangan*).

Bulardan tashqari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi tomonidan o‘tkazilgan o‘rganish davomida **Qashqadaryo viloyati, Koson tumani davlat arxivi fond saqlorida** bo‘lgan “TOSHEV SHAVKAT SULTONOVICH” fermer xo‘jaligi shaxsiy tarkib hujjatlariga asoslanib bir qator fuqarolarga 2003-2015-yillar uchun ish haqini tasdiqlovchi arxiv ma’lumotnomalari taqdim etilgan.

O‘rganish davomida aniqlanishicha, ushbu fermer xo‘jaligiga tegishli hujjatlar arxiv fondiga **2020-yilda egasiz** hujjatlar sifatida qabul qilingan bo‘lib, fondga topshirish dalolatnomalarida topshiruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs haqida hech qanday ma’lumotlar mavjud emas.

Bunga qo‘shimcha ravishda, Soliq organlari va yuridik shaxslar reyestriga ko‘ra “TOSHEV SHAVKAT SULTONOVICH” fermer xo‘jaligi 2012-yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ya’ni 2003–2011-yillar uchun taqdim etilgan ma’lumotlarning qonuniyligiga asos mavjud emas. Shuningdek, mazkur xo‘jalik **Qarshi tumanida faoliyat yuritgan bo‘lsa-da**, uning hujjatlari **Koson tumani arxivi** saqloviga qabul qilingan. Bunday holatlarni Koson tumani davlat arxivi saqlorida bo‘lgan “EGAMBERDIYEV ASILBEK GULOMBEKOVICH”, “KOSON SAVDO BO‘RDOQICHILIK” fermer xo‘jaliklari, “EDEM”, “QULDOSH XAMROX” “ASAD BOBO” xususiy korxonalar arxiv hujjatlarida ham uchratish mumkin.

Kun tartibidagi masala bo‘yicha berilgan ma’lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida “O‘zarxiv” agentligining hay’ati **qaror qiladi:**

1. “O‘zarxiv” agentligi direktori U. Yusupovning “O‘zarxiv” agentligi faoliyatining 2025-yil 1-yarim yillik yakunlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to‘g‘risidagi axboroti **ma’lumot uchun qabul qilinsin.**

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 19.06.2025-yildagi PF-95-son va “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 25.07.2025-yildagi PF-117-son Farmonlari **ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin;**

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O‘zbekiston milliy arxivlari direktorlari:

joriy yilning 10-avgustiga qadar ushbu hay’at yig‘ilishida ta’kidlab o‘tilgan xato va kamchiliklarni o‘zlarining direksiya yig‘ilishlarida tanqidiy

muhokama qilib, qo'pol xato va kamchilikka yo'l qo'ygan xodimlarning intizomiy javobgarligi masalasini hal etib, amalga oshirilgan ishlar to'g'risida yakuniy axborotni tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda "O'zarxiv" agentligiga taqdim etsinlar;

hay'at yig'ilishida qayd etilgan har bir xato va kamchiliklarni bartaraf etish mexanizmini (yo'l xarita, chora-tadbir shaklida) ishlab chiqsinlar;

ma'ruzada ta'kidlangan pullik xizmat, hujjatlarni qabul qilish bo'yicha o'tgan yilga nisbatan past natijalarni ko'rsatgan, hujjatlarining qimmatligini aniqlash ekspertizasini o'tkazishdagi, hujjatlarni qabul qilishdagi tartib-taomillariga rioya etmagan mas'ul shaxslarning javobgarlik masalasini hal etib, amalga oshirilgan ishlar to'g'risida yakuniy axborotni tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda "O'zarxiv" agentligiga taqdim etsinlar;

bir oy muddatda:

arxivlarda depozitar saqlov asosida saqlanayotgan arxiv hujjatlar xatlovini o'tkazib, shartnoma tuzilmagan tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlarni o'rnatish choralari ko'rsinlar;

shaxsiy tarkib arxivlarini tanqidiy tahlil qilgan holda, samarasiz faoliyat yuritayotgan arxivlarni keyingi faoliyati bo'yicha taklif "O'zarxiv" agentligiga asoslangan taklif kiritsinlar;

hujjatlarning qimmatligini aniqlash ekspertizasini o'tkazishda, ayniqsa hujjatlarni yo'q qilishda qonunchilikka rioya qilsinlar;

4. "O'zarxiv" agentligi bosh mutaxassislari (S.Yunusxodjayeva, D.Yusupov) bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 19.06.2025-yildagi PF-95-son va "Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 25.07.2025-yildagi PF-117-son Farmonlari mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan seminar o'tkazilishini ta'minlasinlar.

5. "O'zarxiv" agentligi direktorining maslahatchisi (Sh.Yaminov):

ikki hafta muddat jismoniy va yuridik shaxslardan hujjatlarni arxiv saqloviga qabul qilish jarayonini raqamlashtirish bo'yicha asoslangan takliflar kiritsin;

joriy yil yakuniga qadar arxivlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha shartnomalarni tuzish jarayonlarini raqamlashtirish ishlarini yakuniga yetkazsin.

6. "O'zarxiv" agentligi bosh mutaxassisi (S.Yunusxodjayeva) bir hafta muddatda oliy ta'lim muassasasida arxiv sohasi mutaxassisligi bo'yicha kechki va masofaviy ta'lim uchun nomzodlar ro'yxatini shakllantirsin.

7. Andijon (N.Xasanova), Buxoro (S.Aminov), Jizzax (Y.Usmonov), Qashqadaryo (S.Babakulov), Navoiy (S.Bekova), Namangan (X.Turdaliyev) Surxondaryo (B.Abdushukurov), Toshkent (B.Nigmatullayev) viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O'zbekiston Milliy arxivi (D.Zakirova) tomonidan tegishlicha pullik xizmat, hujjatlarni qabul qilish bo'yicha o'tgan yilga nisbatan past natijalarni ko'rsatgan, hujjatlarining qimmatligini aniqlash ekspertizasini

o'tkazishdagi, hujjatlarni qabul qilishdagi tartib-taomillariga rioya etmaganligi jiddiy kamchilik sifatida ko'rsatib o'tilsin va ogohlantirilsinlar.

II. "O'zarxiv" agentligining 2025-yil II yarim yilligiga mo'ljallangan Asosiy ish rejasi loyihasi muhokamasi to'g'risida

(U.Yusupov, Sh.Sadikov, Sh.Yaminov, Sh.Xojiboyev, S.Aminov, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)

Kun tartibidagi masala hay'at majlisida atroflicha muhokama qilindi.

Ish reja loyihasi yuzasidan hay'at a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Bunga ko'ra, "O'zarxiv" agentligining 2025-yil II yarim yilligiga mo'ljallangan ish rejasi loyihasida nazarda tutilgan tadbirlarning muddatlari aniq belgilanib, maqsadga muvofiq emas deb topilgan tadbirlar chiqarib tashlandi.

Hay'at raisi loyihada belgilangan tadbirlarning ijrosiga mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linma rahbarlaridan ish reja matni bo'yicha va unda belgilangan vazifalarning muddatida ijro eta olishligini, shuningdek ish reja loyihasi bo'yicha taklif va mulohazalar mavjud yoki mavjud emasligini so'radi.

Loyihada belgilangan tadbirlar uchun mas'ul ijrochilar barcha tadbirlarni o'z vaqtida va to'liq bajara olishlari hamda taklif va mulohazalar yo'qligini bildirdilar.

Kun tartibidagi masala bo'yicha berilgan ma'lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida "O'zarxiv" agentligi Hay'ati qaror qiladi:

1. "O'zarxiv" agentligining 2025-yil II yarim yilligiga mo'ljallangan Asosiy ish rejasi **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari **bir hafta muddatda** "O'zarxiv" agentligining 2025-yil II yarim yilligiga mo'ljallangan Asosiy ish rejasiga muvofiq ish rejalarini ishlab chiqsin.

III. "O'zarxiv" agentligi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan 2025-yil I yarim yillikda o'tkazilgan arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan o'tkazilgan davlat nazorati tadbirlari to'g'risida

(U.Yusupov, Sh.Sadikov, Sh.Yaminov, Sh.Xojiboyev, S.Aminov, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)

"O'zarxiv" agentligi bo'lim boshlig'i Sh.Xojiboyevning "O'zarxiv" agentligi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan 2025-yil I yarim yillikda o'tkazilgan arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan o'tkazilgan davlat nazorati tadbirlari to'g'risidagi axboroti eshitildi.

"O'zarxiv" agentligi va Arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan **184 ta (100%)** vazirlik va idoralar hamda boshqa tashkilotlarda arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan **davlat nazorati amalga oshirildi.**

O'tkazilgan **davlat nazorati** tadbirlarining **25 tasi** "O'zarxiv" agentligi tomonidan, 159 tasi (*Qoraqalpog'iston Respublikasi (11 ta), Toshkent shahar (10 ta), Andijon (11 ta), Buxoro (10 ta), Jizzax (17 ta), Qashqadaryo (10 ta), Navoiy (11 ta), Namangan (10 ta), Samarqand (10 ta), Surxondaryo (10 ta),*

Sirdaryo (14 ta), Toshkent (10 ta), Farg‘ona (15 ta), Xorazm (10 ta) viloyatlari) Arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan **amalga oshirildi.**

Davlat nazorati tadbirlari natijasida **160 ta** tashkilotlarga **ko‘rib chiqishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar**, shundan, **22 tasi** Agentlik va **138 tasi** (*Qoraqalpog‘iston Respublikasi (11 ta), Toshkent shahar (10 ta), Andijon (6 ta), Buxoro (10 ta), Jizzax (17 ta), Qashqadaryo (7 ta), Navoiy (9 ta), Namangan (10 ta), Samarqand (9 ta), Sirdaryo (14 ta), Surxondaryo (9 ta), Toshkent (5 ta), Farg‘ona (12 ta), Xorazm (9 ta) viloyatlari)* Arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan **yuborildi.**

Tekshirishda aniqlangan qonunbuzilishlari bo‘yicha **33 nafar** mas‘ul xodimlarga nisbatan Agentlik tomonidan **8 ta** va **25 ta** (*Toshkent shahar (2 ta), Andijon (1 ta), Buxoro (6 ta), Jizzax (9 ta), Qashqadaryo (1 ta), Namangan (1 ta), Samarqand (3 ta), Toshkent (2 ta) viloyatlari)* Arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan **O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 215⁴-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlik bo‘yicha ma‘muriy bayonnoma rasmiylashtirilib**, tegishli sud organlariga yuborildi hamda arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga **2 ta** material yuborildi.

Davlat arxivlari tomonidan **488 ta** tashkilotlar va korxonalarda **298 ta** (136%) yalpi va **190 ta** (140%) mavzuli o‘rganishlar o‘tkazish orqali ularga **arxiv ishi va ish yuritish bo‘yicha amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatildi.**

Vazirlik va idoralar hamda ularning hududiy bo‘limlarida o‘tkazilgan tekshirishlar davomida quyidagi **kamchiliklar aniqlanmoqda:**

O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlarini belgilangan muddatlarda davlat arxivlariga topshirmaslik, arxiv hujjatlarining qimmatligini aniqlash ekspertizasidan o‘tkazmaslik, jumladan, arxiv ro‘yxatlarini tuzmaslik, hujjatlarni tartibga keltirmasdan saqlash va arxiv xonalariga bo‘lgan talablarga rioya etmaslik;

ish yuritish qoidalariga rioya etmaslik, jumladan, ish yuritish yo‘riqnomalari, yig‘majildlar nomenklaturalari ishlab chiqilmaganligi;

Arxiv ishi va ish yuritishga mas‘ullarning bilim va malakalari yetishmasligi hamda tegishli malaka oshirish kurslarida o‘z malakalarini oshirmaslik holatlari.

Shu bilan birga, davlat nazorati tadbirlarida aniqlangan qonun buzilishlari yuzasidan ta’sir choralar ko‘rishda, takror-takror ogohlantirilishiga qaramasdan, ayrim hududiy boshqarmalar panjara ortidan qarab kelmoqdalar.

Xususan, **Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Sirdaryo, Surxondaryo, Farg‘ona, Xorazm** viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlarda huquqbuzarliklar aniqlangan bo‘lsada, **umuman ma‘muriy bayonnomalar rasmiylashtirmasdan** (sudga yuborilmasdan) **kelmoqdalar.**

Bundan tashqari, **“E-ma‘muriy ish”** axborot tizimida Qoraqalpog‘iston Respublikasi (2024-yilda 1 ta), Buxoro viloyati (2024-yilda 2 ta, 2025-yilda 4 ta) arxiv ishi hududiy boshqarmasi tomonidan ma‘muriy huquqbuzarlik

bo'yicha bayonnomalari ro'yxatga olingan bo'lsada, **bugungi kunga qadar mantiqiy yakuniga yetkazilmagan.**

Kun tartibidagi masala bo'yicha berilgan ma'lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida "O'zarxiv" agentligi Hay'ati qaror qiladi:

1. "O'zarxiv" agentligi bo'lim boshlig'i Sh.Xojiboyevning "O'zarxiv" agentligi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan 2025-yil I yarim yillikda o'tkazilgan arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan o'tkazilgan davlat nazorati tadbirlari to'g'risidagi axboroti **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi (**M.Qaipnazarov**) va Buxoro viloyati (**S.Aminov**) arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan "E-ma'muriy ish" axborot tizimida ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha bayonnomalarni ro'yxatga olib, bugungi kunga qadar mantiqiy yakuniga yetkazilmaganligi jiddiy kamchilik sifatida ko'rsatib o'tilsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi (**M.Qaipnazarov**), Navoiy (**S.Bekova**), Sirdaryo (**Sh.Normatov**), Surxondaryo (**B.Abdushukurov**), Toshkent (**B.Nigmatullayev**), Farg'ona (**D.Mallayev**), Xorazm (**R.Matravsulov**) viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari:

o'tkazilgan tekshirishlarda huquqbuzarliklar aniqlangan bo'lsada, belgilangan tartibda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomalar tuzilmaganligi uchun jiddiy ogohlantirilsinlar;

bir hafta muddatda davlat nazorati o'tkazishda sustkashlikka yo'l qo'ygan shaxslarga vakolat doirasida tegishli ta'sir choralar ko'rsinlar.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari:

arxiv ishi va ish yuritish holati bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish sifatini kuchaytirsinlar;

tashkilot va korxonalarda davlat nazoratini amalga oshirishda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-martdagi 174-son qarori bilan tasdiqlangan Arxiv ishi va ish yuritish holati bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlasinlar.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi (**M.Qaipnazarov**) va Buxoro viloyati (**S.Aminov**) arxiv ishi hududiy boshqarmalari **bir hafta muddatda** "E-ma'muriy ish" axborot tizimida ro'yxatga olingan ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha bayonnomalarni mantiqiy yakuniga yetkazish choralarini ko'rsinlar.

IV. "O'zarxiv" agentligi tizimida ijro intizomi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda so'rovlar ijrosi holati to'g'risida

(U.Yusupov, Sh.Sadikov, Sh.Yaminov, Sh.Xojiboyev, S.Aminov, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)

"O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari Sh.Sadikovning "O'zarxiv" agentligi tizimida ijro intizomi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda so'rovlar ijrosi holati to'g'risidagi axboroti eshitildi.

Ijro intizomi holati

"Ijro.gov.uz" tizimida 2025-yil I yarim yillik davomida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar soni jami **56 tani** tashkil etdi, barcha topshiriqlar ijrosi o'z

vaqtida ta'minlanib "Ijro.gov.uz" tizimiga asoslantiruvchi hujjatlari biriktirilib nazoratdan yechildi.

2025-yil I yarim yillik davomida Agentlikka kelib tushgan hujjatlar **7 419 tani**, yuborilgan hujjatlar **1 095 tani** tashkil etgan, **75 ta** asosiy faoliyatga oid, **31 ta** shaxsiy tarkibga oid buyruqlar, **12 ta** ta'tilga chiqishga oid buyruqlar, **4 ta** xizmat safarlariga oid buyruqlar va **13 ta** farmoyishlar ishlab chiqilgan, hisobot davrida Agentlik tomonidan **7 ta**, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari (1 ta), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari (2 ta), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari (4 ta) ijrosi yuzasidan tegishli hujjatlar qabul qilindi.

"O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosarlari va mas'ul bo'lgan xodimlar bilan "Ijro.gov.uz" tizimidagi bajarilishi belgilangan topshiriqlar ijro holati haftada ikki marotaba (chorshanba va juma kunlar) rahbar o'rinbosarlari huzurida muhokama qilindi. Rahbariyat huzurida haftaning dushanba kunlari muhokama qilinib, aniqlangan kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish bo'yicha topshiriqlar berib borilmoqda.

Shu bilan birga, ayrim tizim tashkilotlari tomonidan ijro intizomiga sustkashlikka yo'l qo'yishmoqda.

2025-yil II chorak davomida tizim tashkilotlarga jami **1795 ta** topshiriq tushirilgan bo'lib, **1640 ta** topshiriq bajarilgan, **99 tasi** bajarish jarayonida, **15 ta topshiriq bajarilmagan** va **41 ta** topshiriq **muddatidan kech bajarilgan**.

Xususan, Samarqand **5 ta**, Qashqadaryo viloyati **4 ta**, Andijon Buxoro, Navoiy, Sirdaryo, Toshkent, Farg'ona, O'zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi **3 tadan**, Jizzax, Surxondaryo viloyatlari, O'zbekiston Milliy arxivi, O'zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi **2 tadan**, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan, Xorazm viloyatlari **1 tadan topshiriqlarni muddatidan kech bajarilgan**.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi **3 ta**, O'zbekiston Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi, Xorazm viloyati **2 tadan**, Jizzax, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona viloyatlari, O'zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi, O'zbekiston Milliy arxivi **1 tadan topshiriqni bajarmagan**.

Masalan, Adliya vazirligi hay'ati majlisining 2024-yil 25-dekabrdagi 21/24-son bayoni 4-ilova 6-bandida (*ro'yxatga olingan raqami: 01-26/45-son 04.01.2025-yil*) **joriy yil may oyi yakuniga qadar** "Adliya organlari va muassasalari tomonidan o'rnatilgan quyosh panellari ishlab chiqarayotgan elektr energiyasini doimiy (onlayn) ravishda monitoring qilish uchun elektron tizim o'rnatish" vazifasi belgilanganligiga **qaramasdan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Namangan, Samarqand, Toshkent, Surxondaryo, Jizzax viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmalari, Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari, Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi** mazkur topshiriq ijrosi yuzasidan "edo.ijro.uz" tizimiga asoslantiruvchi hujjatlar **biriktirmagan va mazkur topshiriqni bajarmasdan 71 kunga kechiktirilgan**.

Adliya vazirligining 2025-yil 13-maydagi 6/7-6/9064-son xatida (*ro'yxatga olingan raqami: 01-26/2629-son 14.05.2025-yil*) Adliya organi va

muassasalari tasarrufida bo'lgan binolar hududiga ekilgan ko'p yillik (5 yillik va undan ko'p) daraxt ko'chatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni “Yashil makon” mobil ilovasiga joylashtirish orqali daraxtlar pasportini yaratish ishlarini qisqa muddatda tashkil etish topshirig'i berilgan bo'lishiga qaramasdan **Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati** arxiv ishi hududiy boshqarmalari mazkur topshiriq ijrosini **bajarmagan, Andijon, Samarqand va Toshkent** viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmalari mazkur topshiriq ijrosini muddatidan **kech bajargan** va asoslantiruvchi hujjatlarni “edo.ijro.uz” tizimiga **kechikib biriktirgan**.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “O'zarxiv” agentligi Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishining 1-son bayoni bilan tasdiqlangan “O'zarxiv” agentligi tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish bo'yicha 2025-yil uchun “Yillik kalendar reja” 12-bandida (*ro'yxatga olingan raqami YT36399756-son 19.02.2025-yil*) “1-iyun – “Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni” munosabati bilan “Ochiq eshiklar kuni”ni tashkil qilish. Tizimda faoliyat olib borayotgan xodimlarning farzandlari uchun turli musobaqalar o'tkazish hamda “Farzandlarimizga kitobsovg'a qilaylik!” nomli ommaviy aksiya o'tkazish” vazifasi belgilanganligiga qaramasdan **Qoraqalpog'iston Respublikasi arxiv ishi hududiy boshqarmasi va Ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari milliy arxivi** mazkur topshiriq ijrosi yuzasidan “Edo.ijro.uz” tizimiga asoslantiruvchi hujjatlar **biriktirmagan va mazkur topshiriqni bajarilmasdan 59 kunga kechiktirilgan**.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266-son qarori bilan tasdiqlangan yo'l xaritasi 10-bandida vazirlik va idoralarning hududiy bo'linmalarida binolarga kirish va chiqishda nogironligi bo'lgan shaxslar qulay va to'siqlarsiz harakatlanishi uchun SHNQ talablari asosida sharoitlar yaratilishi belgilangan bo'lsada, ushbu ishlar **Toshkent, Andijon, Farg'ona, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahri, O'zbekiston Kinofotofono hujjatlari milliy arxivi va O'zbekiston Ilmiy-texnik va tibbiyot hujjatlari milliy arxivlarida** tashkil etilganligi haqida ma'lumotlar taqdim etilmagan.

Bundan tashqari, adliya vazirining 2024-yil 21-noyabrdagi **391-um-son** buyrug'i **3-bandida** “O'zarxiv” agentligi binolarni tegishli muddatda belgilangan tartibda qabul qilib olinishini ta'minlash vazifasi belgilangan bo'lsada, **225 kunga kechiktirilgan. Jumladan, Toshkent viloyatida 3 ta** (*Qibray tumani 1-son DNI, Ohangaron shahar sobiq FHDY, Yuqorichirchiq tumani DXM*), **Farg'ona viloyatida 2 ta** (*Farg'ona tumani adliya bo'limi, Furqat tumani DNI*), **Toshkent shahrida 1 ta** (*Uchtepa tumani DNI*) binolarni kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish hamda davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlari bugungi kunga qadar **yakuniga yetmagan** bo'lsada, **Jizzax, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida 1 tadan** (*Jizzax shahar 2-son DNI, Zangiota tuman 6-son DNI, Uchtepa tumanidagi Vatan MFY, 24-mavze, 2-uy*) **binolar arxivlarga topshirish -qabul qilish dalolatnomasi asosida rasmiylashtirilmagan**.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari

“O‘zarxiv” agentligi va uning tizimidagi tashkilotlariga 2025-yil I-yarim yillik davomida jismoniy va yuridik shaxslardan **805 ta** (2024-yil 1-yarim yilligi davomida *1006 ta kelib tushgan bo‘lib, 80% foizga qisqartirildi*), jumladan, **741 tasi** ariza bo‘lsada, **64 tasi** shikoyat turidagi **murojaatlar hisoblanadi**.

Shundan, Agentlikka **498 ta** hamda uning tizim tashkilotlariga **307 ta murojaatlar kelib tushgan**. Kelib tushgan murojaatlarning **543 tasi** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi orqali, **262 tasi** to‘g‘ridan-to‘g‘ri (230 tasi og‘zaki, 16 tasi yozma, 16 tasi elektron pochta va veb-sayt orqali) Agentlik va uning tizimidagi tashkilotlariga, shu jumladan, Agentlik va uning hududiy boshqarmalari rahbariyati tomonidan o‘tkazilgan sayyor va shaxsiy qabullari davomida **226 ta murojaatlar kelib tushgan**.

Kelib tushgan murojaatlarning **455 tasi** (kelib tushgan murojaatlarga nisbatan 57%) qanoatlantirilgan, **240 tasi** (kelib tushgan murojaatlarga nisbatan 30%) tushuntirish berilgan, **90 tasi** (kelib tushgan murojaatlarga nisbatan 11%) taalluqliligi bo‘yicha tegishligi tashkilotlarga yuborilgan, hisobot davrida **20 ta** (kelib tushgan murojaatlarga nisbatan 2%) **murojaatlar ko‘rib chiqilmoqda**.

Bundan tashqari, 2025-yilning I-yarim yilligi davomida o‘tkazilishi rejalashtirilgan **20 ta sayyor qabuldan, amalda o‘tkazilgan sayyor qabullar soni 20 tani tashkil etdi**, shu jumladan, Agentlik direktori 6 ta (100%), direktor o‘rinbosari 3 ta (100%), hududiy boshqarmalari boshliqlari 11 ta (100%) **sayyor qabul o‘tkazilgan**. Shuningdek, rejadan tashqari sayyor qabullar o‘tkazilmagan.

“O‘zarxiv” agentligi va uning hududiy boshqarmalari rahbarlari tomonidan 2025-yil I-yarim yilligi davomida o‘tkazilgan sayyor qabullarida **226 nafar**, shundan, “O‘zarxiv” agentligi **direktori 46 nafar, direktor o‘rinbosari 10 nafar**, hududiy boshqarmalari boshliqlari **170 nafar** (Andijon – 13, Buxoro – 15, Qashqadaryo – 15, Jizzax – 19, Navoiy – 13, Namangan – 21, Samarqand – 27, Sirdaryo – 22, Surxondaryo – 7, Farg‘ona – 33, Xorazm – 5, Toshkent v. – 18, Toshkent sh. – 18) **jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillari** qabul qilingan.

O‘tkazilgan mazkur sayyor qabullarda ishtirok etgan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining murojaatlari ko‘rib chiqilib o‘rnatilgan tartibda bajarilgan.

Agentlik tizimidagi arxiv muassasalarida 2025-yil I-yarim yilligi davomida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishda kamchilik hamda qonunbuzilishi holatlariga yo‘l qo‘yganliklari uchun **12 nafar rahbar va mas‘ul xodim intizomiy javobgarlikka tortilgan**.

Jismoniy va yuridik shaxslarning so‘rovlari

2025-yil I-yarim yillik davomida Respublika arxivlariga **mavzuli va ijtimoiy-huquqiy mazmundagi** so‘rovlar jami **289 501 ta** (2024-yil 1-yarim yillikda 250 350 ta, ko‘rsatkichi 116%) kelib tushgan.

Jumladan, **ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so‘rovlar 233 230 ta** (2024-yil 1-yarim yillikda 194 223 ta, ko‘rsatkichi 120%) tashkil etib, shundan davlat arxivlariga **120 412 ta** (2024-yil 1-yarim yillikda 87 793 ta, ko‘rsatkichi 137%),

shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlariga **112 818 ta** (2024-yil 1-yarim yillikda 106 430 ta, ko'rsatkichi 106%) kelib tushgan.

Davlat xizmatlari markazlari (DXM) va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YAIDXP) orqali 223 882, an'anaviy pochta va elektron pochta orqali **7 517 ta** ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so'rovlar kelib tushgan bo'lsa, shundan, **1 831 nafar** fuqaro bevosita arxivga murojaat etgan.

Arxiv hujjatlari asosida **162 020 ta** ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so'rovlar ijrosi bajarilib, ulardan **150 814 tasi** ijobiy (kelib tushgan ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so'rovlarga nisbatan 65%), **11 206 tasi** (kelib tushgan ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so'rovlarga nisbatan 5%) bo'yicha esa tegishli tushuntirishlar berilgan. Tashkilot hujjatlari arxiv saqloviga kelib tushmaganligi va taalluqliligi bo'yicha tegishli tashkilotlarga yuborilgan so'rovlar **63 033 tani** (kelib tushgan ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so'rovlarga nisbatan 27%), hisobot davrida ijrodegilar **8 177 tani** (kelib tushgan ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so'rovlarga nisbatan 3%) **tashkil etadi**.

Shuningdek, kelib tushgan **mavzuli so'rovlar 56 271 tani** (2024-yil 1-yarim yillikda 56 127 ta, ko'rsatkichi 100%) tashkil etib, shundan **davlat arxivlariga 47 955 ta** (2024-yil 1-yarim yillikda 50 788 ta, ko'rsatkichi 94%), **shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlariga 8 316 ta** (2024-yil 1-yarim yillikda 5 339 ta, ko'rsatkichi 156%) **so'rovlar kelib tushgan**.

Arxiv hujjatlari asosida **56 271 ta** so'rovlar ijrosi bajarilib, ulardan **45 792 tasi** ijobiy (kelib tushgan **mavzuli** so'rovlarga nisbatan 81%), **10 479 tasi** (kelib tushgan **mavzuli** so'rovlarga nisbatan 19 %) tashkilot hujjatlari arxiv saqloviga kelib tushmaganligi bo'yicha tushuntirishlar berildi.

Kun tartibidagi masala bo'yicha berilgan ma'lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida "O'zarxiv" agentligining hay'ati **qaror qiladi**:

1. "O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari Sh.Sadikovning "O'zarxiv" agentligi tizimida ijro intizomi, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda so'rovlar ijrosi holati to'g'risidagi axboroti **ma'lumot uchun qabul qilinsin**.

2. "O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari (**Sh.Sadikov**) va bosh mutaxassisi (**D.Yusupov**):

Adliya vazirligining tegishli boshqarmasi bilan birgalikda agentlikda ijro intizomini mustahkamlash mexanizmi yaratilishini ta'minlasinlar;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori bilan belgilangan talablar asosida topshiriqlarning o'z vaqtida va to'laqonli bajarilishi yuzasidan ta'sirchan choralar ko'rsinlar;

topshiriqlar ijrosini amalda nazorat qilinishini shaxsan tashkil etsinlar, bunda markaziy apparat, hududiy boshqarmalar va O'zbekiston milliy arxivlarida ishlarning real holatini tanqidiy o'rganishga e'tibor qaratsinlar;

topshiriqlarni bajarish bo'yicha nazorat va hisobdorlikni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni

hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori bilan belgilangan tartibga qat'iy amal qilgan holda tashkil etsinlar.

3. “O‘zarxiv” agentligi bosh mutaxassisi (D.Yusupov):

“O‘zarxiv” agentligi tizim tashkilotlarida ijro intizomini ta'minlash va ish yuritishni tashkil etishda metodik ko'maklashish amaliyotini davom ettirsin;

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari bilan ishlashda kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan rahbarlarga intizomiy jazo choralari qo‘llash to‘g‘risida takliflarni “O‘zarxiv” agentligi direktoriga kiritib borsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda O‘zbekiston milliy arxivlari direktorlari:

tashkilotda ijro intizomini mustahkamlash mexanizmi yaratilishini ta'minlasinlar;

topshiriqlar ijrosini amalda nazorat qilinishini shaxsan tashkil etsinlar, ishlarning real holatini tanqidiy o‘rganishga e’tibor qaratsinlar;

uch kun muddatda “edo.ijro.uz” axborot tizimida muddati o‘tgan topshiriqlar bo‘yicha tegishli asos hujjatlarni biriktirgan holda nazoratdan oldirish chorasini ko‘rsinlar;

bir hafta muddatda ma’ruzada ta’kidlangan ijro intizomi va davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohalarida qo‘pol xato va kamchilikka yo‘l qo‘ygan xodimlarning intizomiy javobgarligi masalasini hal etib, amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida yakuniy axborotni tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda “O‘zarxiv” agentligiga taqdim etsinlar;

shaxsiy va sayyor qabullarni tashkil etishda birinchi navbatda muammoli masalalarning qonuniy hal etilishi bo‘yicha amaliy choralarni ko‘rsinlar, murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha faoliyatini muntazam tahlil va nazorat qilib borsinlar;

murojaatlarda qayd qilingan vakolat doirasidagi har bir masalani o‘z vaqtida xolis va qonuniy ko‘rib chiqilishini qat’iy nazoratga olsinlar;

joylardagi tizimli muammolarni aniqlab, ularni hal etish choralari ko‘rsinlar, murojaatlarni, ayniqsa takroriyalarining har birini, o‘z vaqtida sifatli ko‘rib chiqish yuzasidan nazorat ishlarini kuchaytirsinlar;

murojaatlar bo‘yicha ish yuritishni yanada takomillashtirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini samarali joriy etish, murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha mas’ul xodimlarning malakasini oshirish choralari ko‘rsinlar;

tizim tashkilotlariga nisbatan murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha talabchanlikni oshirish, ularga doimiy amaliy yordamlar ko‘rsatish va tavsiyalar berib borish choralari ko‘rsinlar;

murojaatlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish va ko‘rib chiqish natijalarini nazorat qilish bilan bog‘liq jarayonlarni “cabinetpm2.gov.uz” axborot tizimida amalga oshirsinlar;

joylarda jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari bilan tasdiqlangan jadval asosida sayyor qabullar o‘tkazish amaliyotini davom ettirsinlar;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarning, shuningdek takroriylarining kelib tushishi sabablarini chuqur o'rganib chiqsinlar hamda kelgusida ularni bartaraf etsinlar, murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlarining asossiz buzilishlarini oldini olsinlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning har bir murojaatini o'z vaqtida, qonunchilik talablariga muvofiq ravishda ko'rib chiqilishi yuzasidan talabchanlikni yanada kuchaytirsinlar;

murojaatlar bilan ishlashda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni Agentlik va uning tizimidagi tashkilotlarida bartaraf etsinlar, aybdor mas'ul shaxslarga nisbatan keskin choralar ko'rsinlar va kelgusida shu kabi salbiy holatlar takrorlanishining oldini olsinlar;

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-oktabrdagi "Davlat organlari va tashkilotlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish olib boruvchi xodimlari malakasini oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 582-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlaydigan xodimlarni belgilangan tartibda o'qitilishini ta'minlasinlar.

5. "O'zarxiv" agentligi bosh mutaxassisi (**N.Anarkulova**) **2025-yil 5-oktabrga qadar** 2025-yil 9 oylik yakuni bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga belgilangan shakldagi hisobotlarni kiritish choralari ko'rsin.

6. Jizzax (**Y.Usmonov**), Toshkent (**B.Nigmatullayev**), Farg'ona (**D.Mallayev**) viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalari va O'zbekiston Milliy arxivi (**D.Zakirova**) **bir hafta muddatda** Adliya vazirining 2024-yil 21-noyabrdagi 391-um-son buyrug'ida belgilangan vazifalarni mantiqiy yakuniga yetkazsinlar.

V. Davlat arxivlari tomonidan "Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish" axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritish holati to'g'risida

(U.Yusupov, Sh.Sadikov, Sh.Yaminov, Sh.Xojiboyev, S.Aminov, A.Mamanazarov, D.Zakirova, U.Yusupov)

"O'zarxiv" agentligi direktorining maslahatchisi Sh.Yaminovning davlat arxivlari tomonidan "Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish" axborot tizimiga (*keyingi o'rinlarda – Axborot tizimi*) ma'lumotlarni kiritish holati to'g'risidagi axboroti eshitildi. Xususan,

Davlat arxivlari tomonidan 2025-yil 1-yarim yillikda **54,9 ming** saqlov birligidagi **6,0 mln** kadr, joriy yilning 1-iyul holatiga jami **1,2 mln** saqlov birligidan **87,7 mln kadr** arxiv hujjatlarining elektron nusxalari yaratilib, Milliy arxiv fondiga tarkibiga kiritilgan arxiv hujjatlariga nisbatan **12,6 foizni** tashkil etdi.

Davlat arxivlari tomonidan 2025-yil 1-yarim yillikda **1 016 461 ta**, shundan **238 ta** fond, **1251 ta** ro'yxat, **186 298 ta** saqlov birligi, **461 133 ta** hujjat va **367 541 ta bibliografiya to'g'risidagi ma'lumotlar** Axborot tizimiga kiritilib, rejaga nisbatan **169 foizga** bajarilgan bo'lsa, o'tgan yilning 1-yarim yilligiga nisbatan o'sish surati **111 foizni** tashkil qildi.

Hisobot davrida **Navoiy** viloyatidan (*viloyat, Zarafshon shahar, Konimex, Nurota, Qiziltepa tumanlari davlat arxivlari*) **5 nafar**, **Surxondaryo** viloyatidan (*viloyat, Uzun, Jarqo'rg'on, Muzrabot tumanlari davlat arxivlari*) **4 nafar**, **Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Farg'ona, Toshkent** viloyatlaridan (*Andijon, Samarqand, Farg'ona viloyati, Shahrisabz, Mingbuloq tumanlari, Bekobod shahar davlat arxivlari*) **1 nafardan arxiv** xodimlari axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritishda eng faol bo'lishdi.

Shu bilan birga, hisobot davrida **To'raqo'rg'on, Chortoq va Yangiqo'rg'on** tumanlari davlat arxivlari tomonidan **Axborot tizimiga** ma'lumotlarni kiritish yetarli darajada tashkil etilmagan.

Kun tartibidagi masala bo'yicha berilgan ma'lumotlar va bildirilgan fikr-mulohazalar muhokamasi asosida "O'zarxiv" agentligining hay'ati **qaror qiladi:**

1. "O'zarxiv" agentligi direktorining maslahatchisi Sh.Yaminovning davlat arxivlari tomonidan "Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish" axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritish holati to'g'risidagi axboroti **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

2. "O'zarxiv" agentligi direktorining maslahatchisi (**Sh.Yaminov**) **bir hafta muddatda** arxivlarga taqsimlangan skaner va kompyuter uskunalaridan kelib chiqib, arxiv hujjatlarining elektron nusxasini yaratish, ularni raqamlashtirish bo'yicha rejalarini qayta ko'rib chiqsin va asoslangan taklif kiritsin.

2. **To'raqo'rg'on, Chortoq va Yangiqo'rg'on** tumanlari davlat arxivlari direktorlari Axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritishni tashkil etmaganliklari uchun jiddiy **ogohlantirilsinlar.**

3. "O'zarxiv" agentligi Bosh buxgalteri (**F.Suyunov**), bo'lim boshlig'i (**A.Ziyatdinov**) bir hafta muddatda "Davlat arxivlarida raqamlashtirilayotgan hujjatlarni yagona saqlovini ta'minlash hamda ulardan foydalanish" axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritishda eng faol bo'lgan **20 nafar** xodimlarni rag'batlantirish bo'yicha taklif kiritsinlar.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari hamda O'zbekiston milliy arxivlari direktorlari:

davlat arxivlari tomonidan saqlovdagi hujjatlarni raqamlashtirish ishlarini yanada kuchaytirish va qamrovni oshirish choralarini ko'rsinlar;

Axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritishni jadallashtirish bo'yicha tegishli choralarni ko'rsinlar.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi hay’atining 2025
-yil 31-iyuldagi kengaytirilgan
yig‘ilishi 4-son bayonnomasiga
ilova

**“O‘zarxiv” agentligining 2025-yil II yarim yilligiga mo‘ljallangan
ASOSIY ISH REJASI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Ijro uchun mas’ullar
Ia. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2025-yil III va IV choraklarga (II yarim yillikka) mo‘ljallangan ish rejasidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari				
1.	“O‘zbekiston-2030” strategiyasi maqsadlarida belgilangan vazifalarning 2025-yilda amalga oshirish dasturi ijrosini ta’minlash.	Tegishli tadbirlarni tashkil etish hamda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan Adliya vazirligiga axborot kiritib borish.	har oyda	Sh.Tursunbayev
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida o‘tkazilgan yig‘ilishlar bayonnomalari, shu jumladan “O‘zarxiv” agentligi va uning tizimidagi tashkilotlar rahbarlari va mas’ul xodimlarining hisobotlarini eshitish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishlar bayonnomalari topshiriqlarini o‘z vaqtida bajarish choralari yanada kuchaytirish (1-ilova).	1. Tasdiqlangan rejaga muvofiq “O‘zarxiv” agentligi va uning tizimidagi tashkilotlar rahbarlari va mas’ul xodimlarining hisobotlarini “O‘zarxiv” agentligining yig‘ilishlarida eshitishni tashkil qilish. 2. Mas’uliyatsizlikka yo‘l qo‘ygan xodimlarga intizomiy jazo choralari ko‘rish bo‘yicha taklif kiritish.	har chorakda doimiy	Sh.Sadikov, L.Mirzayev
Ib. “O‘zarxiv” agentligining 2025-yil II yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha takliflari				
3.	Vazirlar Mahkamasining “Davlat xizmatlarini ko‘rsatishni tartibga soluvchi	1. Loyihada quyidagilarni nazarda tutish:	avgust	Sh.Sadikov, L.Mirzayev

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Ijro uchun mas'ullar
	normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 20-noyabrdagi 612-son qaroriga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish.	Mavzuli so'rovlar to'g'risida ma'lumotnoma berish bo'yicha davlat xizmatini tezlashtirilgan tartibda ko'rsatilganligi uchun to'lov miqdorini oshirish va to'liq davlat arxivlariga yo'naltirish; Ish haqi va ish stajini tasdiqlash haqida arxiv ma'lumotnomasini berish bo'yicha davlat xizmatini tezlashtirilgan tartibda xizmat ko'rsatish uchun to'lov undirish va to'liq davlat arxivlariga yo'naltirish. 2. Loyihani Adliya vazirligiga kiritish.		
4.	Arxiv hujjatlarini saqlash xizmati bo'yicha "O'zarxiv" agentligi tizimidagi davlat arxivlarini Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish.	1. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-fevraldagi 102-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat xaridlarida Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga asosan DXM va YIDXP orqali murojaat qilgan holda arxivlarni Reyestriga kiritish. 2. Natijasi bo'yicha Adliya vazirligiga ma'lumot kiritish.	avgust	F.Suyunov, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari va O'zbekiston milliy arxivlari
5.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Arxiv ishi hududiy boshqarmalari to'g'risidagi namunaviy nizom loyihasini ishlab chiqish.	Loyihani ishlab chiqib, Adliya vazirligiga kiritish.	sentabr	Sh.Sadikov, S.Yunusxodjayeva
6.	Tashkilotlarning arxiv ishi va ish yuritishga oid ichki me'yoriy va uslubiy hujjatlarini	1. Loyihada quyidagilarni nazarda tutish: arxiv ishi va ish yuritishga oid ichki me'yoriy va uslubiy hujjatlarni ko'rib chiqish muddati,	sentabr	Sh.Sadikov, L.Mirzayev

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Ijro uchun mas'ullar
	ekspertizadan o'tkazish bo'yicha xizmat reglamenti loyihasini ishlab chiqish.	rad etish, kelishish tartibi hamda yig'im miqdorini belgilash. 2. Loyihani Adliya vazirligiga kiritish.		
II. "O'zarxiv" agentligining 2025-yil II yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar natijadorligi tahlillari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari ijrosini maqsadli o'rganish va natijasini "O'zarxiv" agentligi yig'ilishlarida ko'rib chiqish				
7.	"O'zarxiv" agentligining 2025-yil I yarim yillik yakunlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to'g'risida.	1. Yig'ilish kun tartibi loyihasi va uning ishtirokchilari ro'yxatini shakllantirish, "O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari bilan kelishish. 2. Zarur hollarda ko'rib chiqiladigan muammo yuzasidan ishlar holatini bevosita "O'zarxiv" agentligi bo'limlari, tizim tashkilotlarida oldindan o'rganish tashkil etish. 3. Yig'ilishlarda muhokama etiladigan masalalar yuzasidan tegishli materiallarni tayyorlash.	avgust	"O'zarxiv" agentligi hay'at a'zolari, L.Mirzayev
8.	"O'zarxiv" agentligining 2025-yil 9 oy yakunlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumati tomonidan belgilangan vazifalarning bajarilishi to'g'risida.	1. Yig'ilish kun tartibi loyihasi va uning ishtirokchilari ro'yxatini shakllantirish, "O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari bilan kelishish. 2. Zarur hollarda ko'rib chiqiladigan muammo yuzasidan ishlar holatini bevosita "O'zarxiv" agentligi bo'limlari, tizim tashkilotlarida oldindan o'rganish tashkil etish. 3. Yig'ilishlarda muhokama etiladigan masalalar yuzasidan tegishli materiallarni tayyorlash.	noyabr	"O'zarxiv" agentligi hay'at a'zolari, L.Mirzayev
9.	Qoraqalpog'iston Respublikasi,	1. Yig'ilish kun tartibi loyihasi va uning	avgust-dekabr	"O'zarxiv" agentligi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Ijro uchun mas'ullar
	Surxondaryo, Samarqand, Jizax, Sirdaryo, Namangan, Xorazm va Farg'ona viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmasi va ularning tizimidagi davlat arxivlari faoliyatini o'rganish natijalari to'g'risida.	ishtirokchilari ro'yxatini shakllantirish, "O'zarxiv" agentligi direktori o'rinbosari bilan kelishish. 2. "O'zarxiv" agentligi tizim tashkilotlarida oldindan o'rganish o'tkazish. 3. Yig'ilishlarda muhokama etiladigan masalalar yuzasidan tegishli materiallarni tayyorlash.		hay'at a'zolari, L.Mirzayev
10.	"O'zarxiv" agentligi, uning tizimidagi arxiv ishi hududiy boshqarmalari va arxivlarda ijro intizomi, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari va so'rovlari ijrosi holatini o'rganish natijalari to'g'risida.	1. "O'zarxiv" agentligi tizim tashkilotlarida tahlil qilish. 2. Tahlil natijalari yuzasidan tegishli materiallarni tayyorlash.	II yarim yillikda	Sh.Sadikov, D.Yusupov, N.Anarqulova
III. O'zbekiston Respublikasining "Arxiv ishi to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Hukumat qarorlari ijrosini maqsadli o'rganish				
11.	Vazirlik va idoralarda arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan davlat nazoratini o'tkazish.	1. "O'zarxiv" agentligining 2025-yil uchun tasdiqlangan davlat nazorati rejasiga muvofiq tashkilotga tekshirish o'tkazilishini ma'lum qilish va tekshirish savolnomasini yuborish. 2. Davlat nazoratini o'tkazish bo'yicha guruh tuzish va buyruq bilan rasmiylashtirish. 3. Davlat nazoratini o'tkazish va tekshirish natijalari bo'yicha ma'lumotnoma rasmiylashtirish. 4. Aniqlangan qonunchilik hujjatlarini buzilishi bo'yicha taqdimnoma yuborish.	iyul-dekabr	Sh.Sadikov, Sh.Xojiboyev
12.	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari arxiv ishi	1. O'rganish yuzasidan Ishchi guruh tarkibini shakllantirish va tasdiqlash. 2. O'rganish yuzasidan tegishli savolnoma,	reja-jadvalga muvofiq	Sh.Sadikov, Sh.Xojiboyev, L.Mirzayev

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Ijro uchun mas'ullar
	hududiy boshqarmasi va ularning tizimidagi davlat arxivlari tomonidan davlat va arxiv xizmatlarini ko'rsatish, arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan o'tkazilgan davlat nazorati talablariga rioya etilganligi yuzasidan o'rganish o'tkazish (2-ilova).	tahliliy jadvallar shakli, ma'lumotnomalar shaklini ishlab chiqish. 3. O'rganishni joyiga chiqqan holda tashkil etish. 4. O'rganish natijalarini "O'zarxiv" agentligi yig'ilishida muhokama qilish.		
13.	"O'zarxiv" agentligi, uning tizimidagi arxiv ishi hududiy boshqarmalari va arxivlarda ijro intizomi holatini o'rganish hamda uning natijalarini tahlil qilish.	1. "O'zarxiv" agentligi va tizimdagi arxivlar kesimida ijro intizomi holatini ijro.gov.uz tizimi orqali monitoring qilish. 2. Monitoring natijasi bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash. 3. "O'zarxiv" agentligi yig'ilishlarida muhokama qilish.	har hafta har haftaning dushanba kuni har oyda	Sh.Sadikov, D.Yusupov, "O'zarxiv" agentligi markaziy apparati xodimlari
14.	"O'zarxiv" agentligi direktori va o'rinbosarlarining 2025-yil II yarim yilligida joylarda jismoniy va yuridik shaxslar vakillarini shaxsiy qabul qilish, shu jumladan sayyor qabullarini tashkil etish.	1. Sayyor qabul o'tkazilishi bo'yicha rasmiy veb-saytda, gazetada, sayyor qabul o'tkaziladigan arxivda e'lonlar joylashtirish. 2. Belgilangan kunda sayyor qabulni o'tkazish, unda jismoniy shaxs va yuridik shaxs vakillarining murojaatlarini eshitish, murojaatlarni nazoratga olish, ularning bajarilishi yuzasidan choralar belgilash.	Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan rejaga muvofiq	Sh.Sadikov, N.Anarkulova
15.	O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shuningdek, sohaga oid ijtimoiy-huquqiy, mavzuli so'rovlarni monitoringini olib borish hamda natijalarini tahlil qilish.	1. "O'zarxiv" agentligi va tizimdagi arxivlar kesimida O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni ijrosi holatini monitoring qilish. 2. Monitoring natijasi bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash. 3. "O'zarxiv" agentligi yig'ilishlarida	har hafta har haftaning dushanba kuni har oyda	Sh.Sadikov, N.Anarkulova

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Ijro uchun mas'ullar
		muhokama qilish.		
IV. O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni keng yoritish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash, yoshlarga oid davlat siyosatini yuritish hamda jamoatchilik aloqalarini mustahkamlash				
16.	Hududlardagi arxiv ishi va ish yuritish yuzasidan 2025-yil I yarim yilligida va 9 oyida olib borilgan ishlar hisoboti mavzusida matbuot anjumani/brifing o'tkazish.	1. Ma'lumotlarni to'plash, ularni saralash va tahlil qilish. 2. Matbuot anjumani yoki Brifing o'tkazilishi bo'yicha e'lonlar berish. 3. Belgilangan kunda matbuot anjumani yoki brifingni sifatli o'tkazilishini ta'minlash.	iyul, oktabr	A.Aliyev, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O'zbekiston milliy arxivlari
17.	"O'zbekistonda Qozog'iston arxivlari kunlari"ni o'tkazish, madaniy-ma'rifiy tadbirlar hamda mavzuga oid arxiv hujjatlari ko'rgazmasini tashkil etish.	1. "O'zbekistonda Qozog'iston arxivlari kunlari"ni tashkil etishga tayyorgarlik ishlarini olib borish. 2. Tadbirlar dasturini ishlab chiqish. 3. Dasturga muvofiq tadbirlarni tashkil etish.	avgust	A.Aliyev, Sh.Tursunbayev, D. Dadayeva
18.	O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 34 yilligiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga bag'ishlangan tadbirlarni tashkil etish.	1. Tadbir dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlashga kiritish. 2. Tadbir o'tkazilishi bo'yicha choralarni ko'rish va uni o'tkazish.	avgust	Sh.Tursunbayev, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O'zbekiston milliy arxivlari
19.	21-oktabr – "O'zbek tili bayrami kuni" munosabati bilan " Qadring baland bo'lsin, Ona tilim " shiori ostida bayram tadbirlarni tashkil etish.	1. Tadbir dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlashga kiritish. 2. Tadbir o'tkazilishi bo'yicha choralarni ko'rish va uni o'tkazish.	oktabr	Sh.Tursunbayev, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O'zbekiston milliy arxivlari
20.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kunni keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni	1. Tadbir dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlashga kiritish. 2. Tadbir o'tkazilishi bo'yicha choralarni	dekabr	Sh.Tursunbayev, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari,

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Ijro uchun mas'ullar
	o'tkazish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini tashkil etish.	ko'rish va uni o'tkazish.		O'zbekiston milliy arxivlari
21.	“O'zarxiv” agentligi direktorining sayyor qabullari doirasida hududlardagi yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkazishlarini tashkil etish.	1. Tadbir o'tkazilishidan 5 kun oldin rasmiy veb-saytda, gazetada e'lonlar joylashtirish. 2. Ochiq muloqot o'tkazilishini tashkil etish.	sayyor qabullar doirasida	D.Yusupov, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari, O'zbekiston milliy arxivlari
V. Xalqaro munosabatlar				
22.	Arxivlar rahbar va xodimlarining xorijiy davlatlarda tashkil etiladigan konferensiyalar, simpoziumlar, taqdimotlar va o'quv kurslarida ishtirok etishlari bo'yicha xizmat safarlarini tashkillashtirish.	1. Xorijiy davlatlarda arxiv ishi sohasi bo'yicha tashkil etiladigan tadbirlar to'g'risida taklifnomalari va axborot xatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish. 2. Ishtirokchilar va ularning ma'ruza hamda taqdimotlari ro'yxatini, shuningdek, qo'shimcha talab etiladigan hujjatlar paketini shakllantirish. 3. Tegishli davlat organlari bilan hujjatlar paketini o'rnatilgan tartibda kelishgan holda xorijiy davlatlarda tashkillashtiriladigan tadbirlarda rahbar-arxivchilar ishtiroki (onlayn, oflayn)ni ta'minlash. 4. “O'zarxiv” agentligi rahbariyati xizmat safarlari bo'yicha hisobotlari va amaliy takliflarini Vazirlar Mahkamasi va TIVga o'rnatilgan tartibda taqdim etish.	II yarim yillikda	Sh.Sadikov, D.Dadayeva, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari, O'zbekiston milliy arxivlari
23.	O'zbekiston Respublikasi Xalqaro shartnomaviy-huquqiy faoliyatini takomillashtirishga doir 2022–2026-yillarga mo'ljallangan ish rejasi 10-bandiga muvofiq	1. Mahalliy tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan arxiv ishi va ish yuritish sohasida hamkorlik qilish choralari ko'rish. 2. TIVga imzolangan hujjatlar yuzasidan	II yarim yillikda	Sh.Sadikov, D.Dadayeva, Arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari,

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Ijro uchun mas'ullar
	mahalliy tashkilotlar hamda MDH va xorijiy davlatlar arxivlari, muzeylari va ilmiy-amaliy institutlari va idoralari bilan arxiv ishi va ish yuritish sohasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish.	tahliliy ma'lumot kiritib borish.		O'zbekiston milliy arxivlari
24.	Mahalliy hamkor tashkilotlar va xorijiy muassasalar vakillari qabul qilish hamda tashriflarini tashkillashtirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish.	1. Mahalliy hamkor tashkilotlar va xorijiy muassasalar vakillarini o'rnatilgan tartibda qabul qilish, murojaatlarni o'z vaqtida puxta va sifatli ko'rib chiqish. 2. Mahalliy hamkor tashkilotlar va xorijiy muassasalar vakillari bilan arxiv ishi sohasida xorijiy davlatlarning ilg'or ish tajribasini o'rgangan holda respublikada arxiv ishini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha o'rnatilgan tartibda muzokaralar olib borish. 3. Davlat arxivlari o'quv zallarida arxiv hujjatlari bilan ishlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tadqiqotchi va foydalanuvchilariga rozilik berish masalasi yuzasidan ishlarni muvofiqlashtirish.	I yarim yillikda	Sh.Sadikov, D.Dadayeva, O'zbekiston milliy arxivlari
25.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-noyabrdagi PQ-4895-son qaroriga muvofiq arxiv ma'lumotnomalari va boshqa arxiv hujjatlari haqida ma'lumotlarni talab qilish bo'yicha so'rovlarni monitoringini olib borish va natijalarini tahlil qilish.	1. "O'zarxiv" agentligi va tizimdagi arxivlar kesimida monitoring qilish. 2. Monitoring natijasi bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash. 3. Umumlashtirilgan hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim etib borish.	har chorak yakuni bilan keyingi oyning 8-sanasiga qadar	Sh.Sadikov, D.Dadayeva, N.Anarkulova
26.	"O'zarxiv" agentligi rasmiy veb-saytida "O'zarxiv" agentligining davlat organlari,	1. Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar tayyorlash.	har oyning 30-sanasiga qadar	D.Dadayeva, N.Anarkulova,

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Ijro uchun mas'ullar
	jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilib borish.	2. Ma'lumotlarni www.archive.uz saytida e'lon qilish.		J.Ummatov

“O‘zarxiv” agentligining 2025-yil II yarim
yilligiga mo‘ljallangan asosiy ish rejasiga 1
-ilova

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmalari va O‘zbekiston milliy arxivlari
rahbarlarining 2025-yil II yarim yillikda “O‘zarxiv” agentligi majlislarida arxiv ishini rivojlantirishning
eng muhim ustuvor vazifalarini amalga oshirishi bo‘yicha
HISOBOTLARI**

T/r	Iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarning 2025-yilga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari va vazifalari	Ijro muddati	Mas’ullar
1.	Arxiv ishi hududiy boshqarmalari tomonidan 2024-2025-yillarda “O‘zarxiv” agentligi tizimidagi tashkilotlar tomonidan davlat va arxiv xizmatlarini ko‘rsatish, arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan o‘tkazilgan davlat nazorati talablariga rioya etilganligi yuzasidan hisobotini eshitish.	noyabr	Qoraqalpog‘iston Respublikasi , Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo Samarqand, Xorazm viloyatlari arxiv ishi hududiy boshqarmalari boshliqlari

“O‘zarxiv” agentligining 2025-yil II yarim
yilligiga mo‘ljallangan asosiy ish rejasiga 2
-ilova

**“O‘zarxiv” agentligi tizimidagi tashkilotlar tomonidan davlat va arxiv xizmatlarini ko‘rsatish,
arxiv ishi va ish yuritish holati ustidan o‘tkazilgan davlat nazorati talablariga rioya
etilganligi yuzasidan o‘rganish o‘tkazish
REJA-GRAFIK**

T/r	O‘rganish o‘tkaziladigan obyekt nomi	O‘rganish o‘tkaziladigan sana	Mas’ullar
1.	Jizzax viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi va uning tizimidagi davlat arxivlari	avgust	Sh.Sadikov, Sh.Xojiboyev , L.Mirzayev
2.	Sirdaryo viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi va uning tizimidagi davlat arxivlari	avgust	
3.	Surxondaryo viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi va uning tizimidagi davlat arxivlari	sentabr	
4.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi arxiv ishi hududiy boshqarmasi va uning tizimidagi davlat arxivlari	sentabr	
5.	Xorazm viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi va uning tizimidagi davlat arxivlari	oktabr	
6.	Samarqand viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi va uning tizimidagi davlat arxivlari	oktabr	

**Izoh: Ish hajmidan kelib chiqib, o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.*